


Akademik To‘ra Mirzayev nomidagi
Shofirkon tuman Axborot – kutubxona markazi

Axborot – bibliografiya xizmati

“Kitob -bebaho xazina”



Yangi olingan adabiyotlar bilan tanishtirish

(adabiyotlar sharhi)

Shofirkon – 2026

Axborot – kutubxona markazi
Axborot – bibliografiya xizmati tomonidan
kitobxonlarni yangi kitoblar bilan tanishtirish
maqsadida “**Kitob - bebaho xazina**” nomli
adabiyotlar sharhi tayyorlandi.

Tuzuvchi

I.Bahronova

“Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q”.

Shavkat Mirziyoyev

Yaxshi fazilatlar inson ongiga kitoblar orqali singdiriladi. Har bir inson o‘z vaqtini unumli, foydali o‘tkazish, ma’naviy saviyasini oshirish maqsadida kitoblar, badiiy adabiyotlar bilan oshno tutinadi, hordiq chiqaradi. Kitobga oshnolik kishilar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Asrlar davomida inson kitob bilan do‘st bo‘lib, o‘zini qiziqtirgan savollarga javob topib kelgan. Kitob kishining qayg‘uli kunlarida, yolg‘iz qolgan damlarida ham, baxtli va masrur onlarida, ya’ni har bir qadamida, kundalik turmushida ham maslahatchi, sadoqatli hamroh, bebaho boylik va eng yaqin do‘st hisoblanadi.

Kitob — insonning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi, aql qayrog‘i va bilim manbaidir. Kitob — fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo‘lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo‘tabar va muqaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobta muhabbat, uni qadrlash, o‘qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.

Kitob, shak-shubhasiz, insoniyat tomonidan yaratilgan buyuk mo‘‘jizalardan biri. Daraxt po‘stlog‘i yoki teriga yoziladimi, qog‘oz yoki sopolga bitiladimi – bashariyat rivojiga ulkan hissa qo‘shgan muqaddas kitoblar, keyingi davrlarda yaratilgan ilmiy va badiiy kitoblar, bugun urf bo‘layotgan elektron kitoblar – barcha-barchasi insonning intellektual va ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Kitob mutolaasi, kitobxonlik esa hamma zamonlarda ham qadrlanib, e‘zozlangan an‘analardan biridir .

Kitob va kitobxonlik insonlar ong-tafakkurini teranlashtirib, qalbiga eng go‘zal ezgu niyatlarni joylaydigan, ularni yaxshiliklar olamiga yetaklaydigan ma’naviyat sarchashmasidir. Shuning uchun har doim kitob o‘qishga ehtiyojimiz bor.



Hurmatli kitobxonlar ushbu adabiyotlar sharhida siz kutubxona markazimizda yangi kelgan adabiyotlar bilan tanishasiz

Adabiyotlar

1. Malik, Tohir.

Mehmon tuyg'ular [Matn] : Adabiy-badiiy nashr / Tohir Malik.-Toshkent: Sharq, 2002. -144 b.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik bir necha yil avval shu nomda kitob nashr ettirgan edi. Bu kitobga jamlangan falsafiy fikrlarning ayrimlari bilan aziz muxlislar «Iymonlashish umidi», «Tosh qalblarga nazar solinmas» kabi to'plamlari orqali tanishgan bo'lishlari mumkin. Mazkur kitobni nashrga tayyorlashda adib ko'p yangiliklar kiritdi. Dunyoni tushunishga xizmat qiluvchi yangi hikmatlar bilan boyitdi. Yozuvchi hayot falsafasiga doir kuzatishlari, fikrlarini to'ldirgan bu to'plam ham kitobxonlarni befarq qoldirmaydi, deb umid qilamiz.

2. Kristi, Agata.

Qiyshiq uy [Matn] : detektiv / Agata Kristi .- Toshkent : Spectrum Media Group , 2018 .- 240 b.

Misrda Charlz Xeyuord boy oligarx Aristid Leonidsning nevarasi Sofiya bilan tanishadi. Ikki yildan so'ng Charlz Sofiyaning qo'lini so'rab uning yoniga boradi. Biroq Sofiyaning oilasida bu vaqtda fojia yuz bergan bo'lib, uning buvasi o'ldirilgan bo'ladi. Ko'p o'tmay Aristidga insulin o'rniga o'ldiradigan miqdorda ezeren-ko'z tomchisini ukol qilib yuborishganligi ma'lum bo'ladi. Politsiya komissari yordamchisining o'g'li bo'lgan Charlz mana shu jinoyatni ochishga kirishadi.

3. Tog'ay, Murod.

Otamdan qolgan dalalar [Matn] : roman / Tog'ay Murod .- Toshkent : Zukko kitobxon , 2022 .- 352 b.

O'zbek adabiyotshunoslarining tahlilicha Tog'ay Murodning ilk romani „Otamdan qolgan dalalar“ o'zbek milliy adabiyoti tarixida muhim hodisa bo'lgan. Asarni yozishga kirishar ekan, yozuvchi o'zini, o'zining hayot haqidagi bilim, tasavvurlarini qayta tanqidiy taftishdan

o'tkazadi. Shu paytga qadar amal qilgan ijodiy aqidalariga sodiq qolgan holda qishloq hayoti, oddiy odamlar turmushini o'zgacha nigoh bilan anglash yo'lini tutadi.

Muallif o‘z romanida sobiq sho‘rolar zamonida yashab, butun umri dalada ketmon chopib, serquyosh yurtida yelkasi oftob ko‘rmagan, qut-barakot yurtida kosasi oqarmagan munis o‘zbek xalqi siymosini Dehqonqul timsolida badiiy talqin etadi.

4. Osim, Mirkarim

Jayxun ustida bulutlar [Matn] : tarixiy qissalar / Mirkarim Osim .-

Toshkent : Phapos ambition , 2023 .- 160 b.

Ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashlari bir necha ming yillar oldin mag'rib va mashriqda afsonalarga aylangan, ular haqda ko'plab asarlar yozilgan. Ushbu kitobda Mirkarim Osimning mazkur mavzuga oid eng sara asarlari jamlandi. Aziz kitobxon, Vatanni sevgan, forslardan uni himoya qilgan, tinchligiga posbon bo'lgan massagetlar podshosi To'maris, cho'pon Shiroq, dunyo ilm-faniga beqiyos hissa qo'shgan ulug' alloma Abu Rayhon Beruniy boshidan kechirgan g'aroyib voqealar haqida, mo'gullarga qarshi kurashgan o'trorliklar hamda yengilmas bahodir Temur Malik jasoratidan hikoya qiluvchi qissalar mutolaasiga sho-shiling.

5. Sand, Jorj.

Indiana [Matn] : roman / J.Sand .- Toshkent : Ziyo Nashr , 2022 .- 208 b.

Ushbu asar fransuz adibasi Jorj Sand qalamiga mansub. Asarda avval otasi, keuin esa turmush ortog'ining jabridan azob chekkan ayolning hayoti haqida hikoya qilinadi.

Ba'zan inson yonida turgan, har damda unga dalada va ko'mak bergan yaqinlarining mehr- u muhabbatini payqamaydi. Indiana ham o'zini voyaga yetkazgan va ardoqlagan insonning portretiga uyining to'ridan joy beradi-yu, uning borligini sezmaydi. Qalbini va hayotini baxsh etmoqchi bo'lgan yigit esa uni kutmay boshqasiga uylanadi.

Keyin esa...

6. Do'stmuhammad, Xurshid.

Sof o'zbekcha qotillik [Matn] : qissa va hikoyalar / Xurshid Do'stmuhammad .-
Toshkent : Pharos ambition , 2023 .- 192 b

«Sof o'zbekcha qotillik» — o'zbek adabiyotining taniqli vakili Xurshid Do'stmuhammad tomonidan yozilgan qiziqarli detektiv qissa. Asar 192 sahifadan iborat bo'lib, uning syujeti jinoyat fojiasi atrofida qurilgan va o'quvchini boshidan oxirigacha qiziqtiradi.

Kitobda jinoyat fojiasi, tergov jarayoni va adolat izlash yo'li nafaqat tashkiliy-sarguzasht jihatdan, balki psixologik chuqurlik jihatidan ham tasvirlangan. Muallif voqealarni ravon va ta'sirli til bilan ifodalab, o'quvchini syujetdan ajratmaydi.

Ushbu asar o'zi kutgan natijaga erishish uchun izlanayotgan tergovchi, suhbatlar, g'oyalar va kutilmagan burilishlar orqali adabiyot ixlosmandlarini yangi va murakkab dunyoga olib kiradi.

7. Muxtor, Asqad.

Bo'ronlarda bordek halovat [Matn] : qissa / Asqad Muxtor .- Toshkent : Oltin qalam , 2023 .- 320 b.

Asqad Muxtorning ushbu qissasi yuzaki qaraganda hayot bo'ronlari, sahro bo'ronlari bilan yuzma-yuz turib, kurashib, yengib yashagan, sahro-cho'ldan oltin izlagan inson - Mardonqul Zargarov haqida yozilganday tuyuladi. Lekin asarni diqqat bilan o'qib chiqsangiz, unda asar yozilgan davrning bir qancha ijtimoiy muammolari ham ko'rsatilganligiga guvoh bo'lasiz. Bunga misol qilib ma'lum bir jinoyati uchun ozodlikdan mahrum bo'lib, o'z aybini xalq-yurt farovonligi yo'lida o'tashga harakat qilgan yoki o'z mansabidan foydalanib yurt boyligini talon-taroj qilayotgan insonlarning ham kirdikorlari ochib berilgan.

Shuningdek, asarda asosiy e'tibor insonning qadr-qimmati, muhabbati, er-xotin munosabatlariga qaratilgan desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Buni ushbu asardan yig'ilgan «Yon daftarga muhrlanuvchi bitiklar»da ham ko'rish mumkin.

8. Qahhor,A.

Asror bobo [Matn] : (Hikoyalar to'plami) / Abdulla, Qahhor .- Toshkent : Oltin qalam , 2023 .- 160 b.

Ushbu hikoya Abdulla Qahhorning inson xarakterini ochib berishdagi yuksak mahoratini ko'rsatuvchi asarlardan biridir. Unda oddiy mehnatkash inson — Asror boboning hayoti, uning boshqalarga bo'lgan samimiy munosabati va olijanob fazilatlarini tasvirlanadi. Muallif qahramonning ichki dunyosi va o'zbekona soddaligini mahorat bilan chizib bergan. Hikoyada inson qadri, mehnatning ahamiyati va keksalar hayotidagi o'ziga xosliklar badiiy bo'yoqlarda yoritilgan.

9. Qodirov,Pirimqul.

Avlodlar dovoni [Matn] : tarixiy roman / P.Qodirov .- Toshkent : “ Turon zamin ” , 2024 .- 640 b.

Pirimqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" (yoki "Humoyun va Akbar") romani mashhur "Yulduzli tunlar" asarining davomi bo'lib, Zahiriddin Muhammad Bobur vafotidan keyin uning o'g'li Humoyun va nabirasi Akbar taqdiri, Boburiylar sulolasini mustahkamlash yo'lidagi murakkab tarixiy kurashlar haqida hikoya qiladi. 1980-yillarda yaratilgan ushbu tarixiy asar Humoyunning Hindistondagi mashaqqatli faoliyati va Akbarning buyuk davlat arbobi sifatida shakllanishini badiiy tasvirlaydi.

10. Bo'rixon, Luqmon

Jaziramadagi odamlar [Matn] : ijtimoiy-maishiy roman / L.Bo`rixon .- Toshkent. : Oltin qalam , 2024 y. .- 384 b.

Iste'dodli yozuvchi Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romani. Unda ovloq cho'l quyidagi cho'lquvarlarning hayotiy kechinmalari ifoda etilgan. Asarning g'oyat go'zal va jozibali badiiy tili o'quvchini beixtiyor o'ziga rom qiladi. Romanning bosh qahramoni Lolaxon. Taqdirning taqazosi bilan u ovloq joyga kelin bo'lib tushgan. Lolaxonning achiq qismati hech bir kitobxonni befarq qoldirmaydi. Sevgi-sadoqat, xiyonat va nafrat kabi abadiy tuyg'ularni yozuvchi o'ziga xos ravishda noyob tasvirlagan.

11. Qodirov, Primqul

Yulduzli tunlar [Matn] : tarixiy roman / Pirimqul Qodirov .- Toshkent : Turon zamin , 2024 .- 640 b.

Mahoratli yozuvchi Pirimqul Qodirovning ushbu asari o'zbek adabiyotining eng sara tarixiy romanlari sirasiga kiradi. Unda Movarounnahrdek ulkan saltanatning parchalanib ketishi, Temuriylar sulolasining inqirozi, hokimiyatga erishish ilinjida taxt talashib, bir-birlariga qilich ko'targan og'a-ini, tog'a-jiyanlarning fojiaiy qismati aks ettirilgan. Roman voqealari orqali o'quvchi tarixda Temuriylar o'rtasidagi nizolar, fitna, fisq-u fasod tufayli yuzaga kelgan qonli urushlar, ayovsiz xunrezliklar oqibatida behad qonxo'r beklar zulmidan sillasi butkul qurigan xalqning g'oyat nochor ahvoli va uyushqoqlikdan bexabar Temuriylarni Shayboniyxon qanchalar oson mahv etgani bilan tanishadi. Asarning bosh qahramoni mirzo Bobur odamlardagi bemehrlik, bir-birini ko'rolmaslik, xudbinlik, xiyonat singari jirkanch illatlar bilan g'oyat erta, o'n ikki yoshida taxtga o'tirganida ro'baro' bo'ldi. Taqdirning ayanchli zarbalaridan zada bo'lgan shohning kuygan yuragi – shoir qalbi qalandarlikni ixtiyor etgani ajab emas. Asar mutolaasi davomida butun umr Vatan ishqida yonib, sog'inch bilan o'rtanib, "Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim..." deya iztirob chekkan bobokalonimiz dardi kitobxon qalbini larzaga soladi.

12. Kristi, Agata.

Quyosh ostidagi yovuzlik [Matn] : detektiv / A. Kristi .- Toshkent : Spectrum nashriyoti , 2024 .- 224 b. .

"Quyosh ostidagi yovuzlik" romani Agata Kristining eng qiziqarli asarlari ro'yxatida turadi. O'z vaqtida ekranlashtirilgan bu asar kitobxonlarni ham, tomoshabinlarni ham zeriktirib qo'ymasligi aniq.

Xususiy izquvar Erkyul Puarro Lezerkomb ko'rfazida dam olishni istaydi, ammo kurortda ham odatdagi ishi bilan shug'ullanishiga - qotillikni fosh qilishiga to'g'ri keladi. Bir qarashda qotilning kimligi ravshan- hammasiga muhabbat uchburchagi aybdor. Lekin uchburchak to'rtburchak, beshburchak, hatto juda murakkab geometrik figura bo'lib

chiqishi, odamlarning ko'ziga muhabbat va ehtirosdek ko'ringan tuyg'ular esa, aslida, boylikka o'chlik bo'lishi ham mumkin. Bunday chalkash jinoyatni Puarodan boshqa kim ham fosh qila olardi ?

13. Kristi,Agata

Uchinchi qiz [Matn] : detektiv / A. Kristi .- Toshkent : Spectrum nashriyoti , 2024 .- 272 b.

Norma Restarik ismli yosh qiz mashhur Erkyul Puaro yoniga maslahat so'rab keladi. Qiz unga asabiy, beqaror va hadikli odamdek ko'rinadi, xuddi odam o'ldirgan qotildek taassurot qoldiradi. Ammo u na qurbonning ismini, na qotillik yuz bergan vaziyatni, na jinoyat joyini eslay oladi. Erkyul Puaro uning turmush tarzi va atrofidagi odamlar bilan tanishib... zarur ma'lumotlarni oz-ozdan to'plab... qotillikni izlaydi.

Ushbu roman birinchi marta 1966 yilda Angliyada nashr qilingan. Asar syujeti chigal, ayyorona tuzilgan. Muallif bu romanida yigirmanchi asrning oltmishinchi yillaridagi zamonaviy yoshlarning qiyofasini tasvirlaydi.

14. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek

Qutlug'qon [matn] : roman / Muso Toshmrhammad o'g'li Oybek. Toshkent : Oltin qalam, 2024 .- 368 b.

„*Qutlug' qon*“ ayanchli o'tmishdan hikoya qiluvchi asar. Asar qahramonlari boylar va kambag'allar, salbiy va ijobiy obrazlarga bo'lingan.

Romanda o'zbeklar tarixining chirkin va qora kunlari, oq podsho istilosi davri, birinchi jahon urushida yengilayotgan podsho hukumatiga mardikor yollash va buni Turkiston xalqlari orasidan yig'ishi. Bunga qarama-qarshi yo'lda harakat qilgan, haqiqat va sevgisi uchun kurashgan Yo'lcining bu yo'lda halok bo'lishi tasvirlangan.

15.Yoqubov,O.

Ulug'bek xazinasi [Matn] : roman / Odil Yoqubov .- Toshkent : Nurli dunyo , 2024 .- 384 b.

Sohibqiron Amir Temurning Nabirasi Mirzo Ulug'bek o'z nomini tarixga muhrlab ketgan allomalardan biridir.Shoh sifatida o'z yurtida tinchlikni qaror toptirish bilan birga Ulug'bek bobomiz ilm-fan, madaniyat va san'atning gullab yashnashiga bemisil hissa qo'shgan.

Ushbu asarda Odil yoqubov ana shu temuriyzoda hukmdor hamda buyuk allomaning saltanatdagi faoliyati,shaxsiy hayoti,uning quvonchi va iztiroblari,umrining so'nggi damlarida kechgan voqea-hodisalarni yorqin badiiy bo'yoqlarda tasvirlaydi.

16. Mirmuhsin.

Xo`jand qal`asi [Matn] : Mirmuhsin .- Toshkent : Oltin qalam , 2024 .- 544 b

Mirmuhsinning “Xo`jand Qal`asi” tarixiy romani — o`zbek adabiyotidagi eng ta`sirchan va mazmunan boy asarlardan biridir. Ushbu roman o`quvchini qadimiy Xo`jand shahrining shonli tarixi, xalqning jasorati va yurt ozodligi yo`lidagi kurashlari bilan tanishtiradi.

Asarda tarixiy voqealar badiiy mahorat bilan tasvirlanib, qahramonlarning ichki kechinmalari, vatanparvarlik ruhi va milliy g`urur tuyg`usi yorqin ifodalanadi. Xo`jand qal`asi — nafaqat bir inshoot, balki xalqning matonati, birlik va mardlik ramzi sifatida gavdalanadi.

Muallif roman orqali o`tmish sahifalarini jonlantirib, o`quvchini tarixiy tafakkurga chorlaydi. Kitob sodda va ravon tilda yozilgan bo`lib, tarixiy romanlarni sevuvchilar, talabalar, o`qituvchilar hamda milliy merosga qiziquvchilar uchun ayni muddao

17. O`nder, Mehmet

Hazrati Mavlono: adabiy-badiiy nashr/Mehmet O`nder. Tarjimon: Shermurod Subhon. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. –208 b.

Turk yozuvchisi Mehmet O`nderning "Hazrati Mavlono" asari Mavlono Jaloliddin Rumiylarning hayoti va ijodiga bag`ishlangan eng mukammal biografik kitoblardan biri hisoblanadi.

Asarda Rumiyning tug`ilishidan to umrining so`nggi damlarigacha bo`lgan davr tarixiy va badiiy tarzda tasvirlangan. Muallif ko`plab nodir manbalarni o`rganib, Mavlonoaning siyrati, ma`naviy olami va Shams Tabriziy bilan uchrashuvi kabi muhim voqealarni yaxlit holda bayon qilgan.

18. Yuy, Xua.

Yashamoq [Matn] : roman / Yuy Xua.-Toshkent: Huzur nashriyoti, 2024 .-278 b.

Yuy Xuaning "Yashamoq" romani — Xitoyning murakkab tarixiy davrlarida o`z boyligini yo`qotgan Fugui ismli dehqonning fojiali taqdiri orqali yashashga bo`lgan iroda va sabr-toqatni ulug`lovchi asar. Kitob o`quvchini hayotning har bir lahzasini qadrlashga, har qanday sharoitda ham taslim bo`lmaslikka o`rgatuvchi ta`sirchan, ko`z yoshlarga boy drama.

19. Boshbekov, Sharof.

“Temir xotin” : jiddiy komediya/“Adabiy barhayot asarlar”turkumi –.:“Oltin qalam”,

2024.–128b.

Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyasida qahramon xarakterini ochib berishga,

shu bilan birga o'sha davrdagi jamiyatdagi ba'zi amaldorlarni ta'kidlab o'tishga qaratilgan asardir. Sharof Boshbekovning "Temir xotin" dramasi butun o'zbek xalqi juda yaxshi

bilishadi. O'tgan asrning 80-yillarida yaratilgan ushbu asar o'z vaqtida shov-shuv bo'lganligi hamda 20 dan ortiq tilga tarjima qilinganligi uchun bu asarni hozirgacha sevib o'qiyamiz.

20. Murod Muhammad Do'st.

Lolazor : roman.M.M.Do'st.–Toshkent:“Ochun” nashriyoti, 2025. –704 b.

Lolazor — yozuvchi Murod Muhammad Do'st tomonidan 1988-yilda yozilgan roman. Roman 80-yillarda og'ir davrlarni boshidan kechirayotgan Sovet davlatida yuz bergan tur- g'unlik davri haqida hikoya qilib beradi.

Asarda sovet davrining so'nggi yillariga kelib kuchaygan turg'unlik davri va u olib kelgan iqtisodiy hamda ma'naviy tanazzulning o'sha davrda yashagan insonlar hayotida namoyon bo'lishi bilan bog'liq jarayonlar ko'rsatib berilgan.

21. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf

Baxtiyor oila. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf -Toshkent.: “Hilol-Nash”, 2025. –528 b.

"Baxtiyor oila" kitobi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf qalamiga mansub bo'lib, Islom dinining oilaviy munosabatlarga oid keng qamrovli qo'llanmasidir.

Ushbu kitob musulmon kishi oilaviy hayotga oid bilishi lozim bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga oladi. Kitobda baxtli va saodatli oila qurishning islomiy asoslari, er-xotinning huquqlari, burch va majburiyatlari, farzand tarbiyasi, ota-onaga munosabat, taloq, idda kabi ko'plab dolzarb mavzular oyatlar, hadislar hamda salaf solihlarning hayoti misolida tushuntiriladi.

22. Ahmad, Said.

Qorako'z majnun [Matn] : qissa va hikoyalar / Said Ahmad .- Toshkent : Turon zamin , 2025 .- 256 b.

Qorako'z majnun” Said Ahmadning muhim asarlaridan biri bo'lib, u o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Ushbu asar, sevgi, vafodorlik, qurbonlik va insonning ichki kurashi haqida chuqur fikrlar beradi. Qorako'z sevgi va sadoqat ramzi. Uning obrazida nafaqat go'zallik balki ichki kuch va jasorat mavjud. Adib Qorako'z va Majnun sifatlari orqali insonning ichki nigohini, kurashini va sevgi hissini simvolik ravishda ifodalaydi. Asar qadimiy va romantik muhitda joylashadi.

23. A'zam, Erkin

Otoyining tug'ilgan yili [Matn] : qo'shqiassa / Erkin, A'zam .- Toshkent : Yangi kitob , 2025 .- 128 b.

Asarda ustoz va shogird o'rtasidagi munosabatlar, ustozning jamiyatdagi o'rni, ustoz obrazi orqali ilgari surilgan ma'naviy va axloqiy qadriyatlar ochib berilgan. Maqolada qahramonning dunyoqarashi va ichki ziddiyatlari zamirida ustozlar obraziga berilgan baho, muallifning tanqidiy yondashuvi va ijtimoiy muammolar tasviri chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, qissa badiiyati va personajlar tahlili orqali zamonaviy ustoz-shogird munosabatlari ham o'rganiladi.

24. Rajabov ,Qahramon.

Alp Er To'nga (Afrosiyob) [Matn] / Q. Rajabov .- Toshkent : Ochun , 2025 .- 144 b.

Mazkur tarixiy monografiyada turkiy xalqalar qahramoni, mohir harbiy sarkarda, Turon davlatining asoschisi, bahodir va jahongir yo'l boshchi Alp Er To'nga (Afrosiyob) siymosi bugungi o'zbek tarix fanida ilk marta tarixiy shaxs sifatida yoritilmoqda. Muallif turkiy adabiyotning eng qadimgi yozma yodgorliklari, Narshaxiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib kabi qomusiy allomalarning tarixiy asarlari hamda Avesto va "Devonu lug'atit turk" hamda boshqa tarixiy manbalar va tadqiqotlar taxlili asosida Alp Er To'nga faoliyatini tadqiq etgan.